

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10897366>

**AVTOMOBIL YO‘LLARI DAVLAT KADASTRI TIZIMIDAN  
FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH  
(QASHQADARYO VILOYATI KOSON TUMANI MISOLIDA)**

**Aliqulov G‘olib Nartoshevich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti

[asilbek2022@rambler.ru](mailto:asilbek2022@rambler.ru)

**Fayzullayeva Lobar Xayrulla qizi**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti o‘qituvchisi

[lobarfayzullayeva@gmail.com](mailto:lobarfayzullayeva@gmail.com)

**Baxtiyorova Shodiyona Nurmajet qizi**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti magistranti

[baxtiyorovashodiyona8@gmail.com](mailto:baxtiyorovashodiyona8@gmail.com)

**Nortoshov Asilbek G‘olib o‘g‘li**

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti"

Milliy tadqiqot universiteti talabasi

[asilbekn512@gmail.com](mailto:asilbekn512@gmail.com)

**ANNOTATSIYA**

*Maqolada avtomobil yo‘llari davlat kadastr, ularni yuritish va tashkil qilish, avtomobil yo‘llarining bugungi holati haqida bayon qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *avtomobil yo‘llari, transport vositasi, kadastr, xalqaro ahamiyatdagi yo‘llar, davlat ahamiyatidagi yo‘llar, mahalliy yo‘llar, geoaxborot tizimi.*

**ABSTRACT**

*The article describes the state cadastre of highways, their maintenance and organization, and the current state of highways.*

**Key words:** *highways, vehicle, cadastre, roads of international importance, roads of state importance, local roads, geoinformation system.*

## АННОТАЦИЯ

*В статье рассмотрен государственный кадастр автомобильных дорог, их содержание и организация, а также современное состояние автомобильных дорог.*

*Ключевые слова:* автомобильные дороги, транспортное средство, кадастр, дороги международного значения, дороги государственного значения, дороги местного значения, геоинформационная система.

**Kirish.** Mamlakatimizda avtomobil yo‘llari davlat kadastrini yuritish va shu asosida loyiha ishlarini olib borish uchun “Davlat kadastrlari to‘g‘risida”gi Qonun, Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 16 fevraldagi 66-sonli qarori va “Davergeodezkadastr” qo‘mitasining 2014 yil No 2618-son bilan Adliya vazirligi ro‘yxatidan o‘tgan “Davlat kadastrlari yagona tizimiga tegishli davlat kadastrlari ma‘lumotlarining tarkibi va ularni taqdim etish tartibi” nomli nizomi kabi bir qator qonun hujjatlari asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Davlat tomonidan boshqarish tizimida raqobat muhitini shakllantirish va yo‘l xo‘jaligi tarmog‘iga investisiyalar jalb etilishi avtomobil yo‘llari davlat kadastr (keyingi o‘rinlarda AYDK) va avtomobil yo‘llarining avtomatlashgan tizimini modullashtirishning muhim bosqichi bo‘lib xizmat qiladi[1]. Avtomobil yo‘llari davlat kadastr - bu avtomobil yo‘llari obyektlari, ularning geografik holati, huquqiy maqomi, miqdor va sifat tavsiflari hamda iqtisodiy baholash to‘g‘risidagi yangilanib turiladigan ishonchli axborot tizimidir. Avtomobil yo‘llari davlat kadastr Davlat kadastrlari yagona tizimi (DKYaT)ning tarkibiy qismi hisoblanadi hamda avtomobil yo‘llari obyektlarini hisobga olish va ularning holatini baholash maqsadida yuritiladi [2].


Avtomobil yo‘li - transport vositalari harakatlanishi uchun mo‘ljallangan, ularning belgilangan tezlikda, og‘irlikda, o‘lchamlarda muttasil va xavfsiz harakatlanishini ta‘minlaydigan muhandislik inshootlari majmuasidir [3].

**Tadqiqot o‘tkazish uslubi.** Maqolani tayyorlashda qiyosiy tahlil, chet davlatlar tajribalarini o‘rganish va milliylashtirish, mantiqiylik va umumlashtirish metodlari qo‘llanildi.

**Natijalar va munozaralar.** Bugungi kunda respublikamizdagi mavjud avtomobil yo‘llari uzunligi 42 869 km.ni tashkil etgan bo‘lib, shundan 3 993 km xalqaro, 14 203 km. davlat, 24 673 km mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo‘llardir. Qashqadaryo viloyatidagi jami avtomobil yo‘llari uzunligi 13,9 ming kilometrni tashkil etadi. Bundan jami foydalanilayotgan yo‘llar uzunligi 3,4 ming kilometr, xo‘jaliklar (xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari, shaharlar, shahar posyolkalari, qishloqlar va ovullar ko‘chalari) 10,5 ming kilometrni tashkil etadi. Viloyat jami 14 tumandan tashkil topgan (1-shakl).

## Qashqadaryo viloyati hududidagi avtomobil yo‘llarining tumanlar kesimidagi ulushi (% da)

1-shakl



Avtomobil yo‘llari ma’muriy ahamiyati ko‘ra quyidagicha tavsiflanadi.

- Xalqaro
- Davlat
- Mahalliy



Xalqaro ahamiyatdagi  
avtomobil yo‘llari



Davlat ahamiyatdagi  
avtomobil yo‘llari



Mahalliy ahamiyatdagi  
avtomobil yo‘llari

- xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan avtomobil yo‘llari - bu Respublikalar markazlarini o‘zaro bog‘lovchi, shuningdek, yirik sanoat markazlari hamda yirik madaniyat markazlarini bog‘lovchi, qo‘shni davlatlar bilan transport va sayohat uchun bo‘ladigan aloqalarni ta’minlovchi yo‘llardir.

- davlat ahamiyatidagi avtomobil yo‘llari - Respublika markazlarini aholisi 100 mingdan 500 minggacha bo‘lgan shaharlar bilan bog‘laydi.

- mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo‘llari - viloyatlar va tuman markazlarini, qishloq va shaharlarni (aholisi 10 mingdan 50 minggacha bo‘lgan), davlat va

respublika ahamiyatidagi yo'llar bilan ichki tuman markazlarini, aholi yashash punktlarini, mahalla fuqarolar yig'inlarini bir biri bilan yo'l aloqalariga xizmat qiladi. [4]

Koson tumani viloyatning janubi-sharqiy qismidagi joylashgan bo'lib, maydoni 1,88 ming km<sup>2</sup>. Tuman hududidagi jami avtomobil yo'llari uzunligi 297 kilometrni tashkil qilib, shundan 34 kilometri yoki 11,4% qismi davlat ahamiyatidagi yo'llar, 263 kilometri yoki 88,6% qismi mahalliy ahamiyatdagi yo'llardir.

### Koson TYFUK bo'yicha umumiy foydalanishdagi davlat va mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llarining titul ro'yxati

1-jadval

No	Yo'l raqami	Avtomobil yo'llari nomi	Manzili (km-km)	Uzunligi (km)
<b>Davlat ahamiyatidagi yo'llar</b>				
1	4P-95	A-380 a/yo'lidan – Puloti-Shurbozor	0-30	30
2	4P-90	Qarshi – Beshkent – Kasbi – Koson	60-64	4
<b>Jami</b>				34
<b>Mahalliy ahamiyatidagi yo'llar</b>				
1	4k-313	A - 380 a/y – (61 km) – Nekuz q. – Pistali q. – 4P95 a/yo'li	0-15	15
2	4k-314	Guvalak q.- Pistali q. – Paxtaobod q.	0-17	17
3	4k-315	Nekuz q. - Guvalak q.	0-11	11
4	4k-316	Qorabayir q. – Mudin q.- Esaboy q.	0-5	5
5	4k-317	Sherbek q. – Bo'lmas q. – Oqtepa q.	0-17	17
6	4k-324	Esaboy q.- Tuqmang'it q.	0-7	7
7	4k-334	Koson sh. – Qipchoq q.	0-8	8
8	4k-335	Koson sh. – Jargum q. – Alatun q.	0-33	33
9	4k-338	Koson sh. – Jargum q. – Katta yobu q.	0-48	48
10	4k-339	Koson shahar aylanma yo'li	0-16	16
11	4k-344	4p91 avtoyo'li – Koson temir yo'l stansiyasi	0-6	6
12	4n-281	Qozoqli q. – Uzunquduq q.	0-3	3
13	4n-284	“A-380” avtoyo'li (81 km) – Koson sh. – Obron q. – Pudina q.	0-19	19
14	4n-292v	b) – Qorabayir qishlog'iga 72 km	0-3	3
15	4n-300	Obidida q. – Ko'lbuqa q. – Xo'jaqo'rg'on q.	0-4	4
16	4n-301	“4P95 – avtomobil yo'lidan shahobchalar” a/yo'li	0-9	9
17	4n-302	Oqtepa q. – Gulbog' q.	0-8	8
18	4n-316	Gulbog' q. – Shirintepa q.	0-20	20
19	4n-384	Shayxali qo'rg'oni – Darcha q. – Ushoqtepa q.	0-14	14
<b>Jami</b>				<b>263</b>
<b>Hammasi</b>				<b>297</b>

*Izoh. Koson TYFUK ning ma'lumotlariga asosan tayyorlandi.*

**Xulosalar.** Jamiyatda rivojlangan mamlakatlar o'zining taraqqiyoti davrida yer - mulk munosabatlarini tartibga solish orqali kadastr tizimini yaratganlar. Tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, kadastr tushunchasi – bu hududlardagi tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy boyliklarni, voqea va hodisalarni hamda davriy jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tizimlashtirishdir. Tadqiqot natijasida dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida avtomobil yo'llari kadastr hisobi to'liq ro'yxatga olinganligi, geoaxborot tizimi oilasiga mansub dasturiy ta'minotlarda geoma'lumotlar bazasi yaratilganligi, ma'lumotlar integratsiya qilinganligi ma'lum bo'ldi. Shuni ta'kidlash kerakki, turli xil tizimlarni birlashtirish bo'yicha 2000 yillarning boshida salmoqli loyiha ishlari start olgan bo'lib, Shvesiya, Norvegiya, Finlyandiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va AQSh mamlakatlarida avtomobil yo'llari to'g'risidagi ma'lumotlarining yagona markazlashtirilgan bazalari va ko'plab integratsiyalashgan amaliy tizimlari yaratila boshlagan[5].

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. *Inamov A. N. et al. The role of geo information technologies in management and design of the state cadastre of roads //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 11. – S. 154-160.*
2. *Ergashev M. M., Inoyatov Q. M., Inamov A. N. Avtomobil yo'llarida geoaxborot tizimlari //Namangan, NamMQI.–2019*
3. *O'.B.Muxtorov, A.N.Inamov, J.O.Lapasov “Geoaxborot tizim va texnologiyalari:; O'quv qo'llanma, Toshkent-2017, 220 page*
4. *Geoinnavatsion texnologiyalar asosida avtomobil yo'llari davlat kadastrini shakllantirish va yuritish. Musayev Ilxomjon Maqsudovich, Ergashev Muhammadyusuf Muhammadolim o'g'li*
5. *Ergashev M., Mamajonov M., Kholmirezayev M. Automation and modulation of highways in gis software //Teoriya i praktika sovremennoy nauki. – 2020. – №.5. – S. 9-14.*